

**YAYLOV TANGACHAQANOTLILARINING TUR TARKIBI  
SPECIES COMPOSITION OF MEADOW COINS****ВИДОВОЙ СОСТАВ ЛУГОВЫХ МОНЕТ**

**Xaytmuratov Arslanbek Fayzullaevich,**  
*q/x.f.d., Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.*  
Ye-mail: [Xayitmurodov62@mail.ru](mailto:Xayitmurodov62@mail.ru)

**Annotatsiya:** O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlari yaylovlarida yashovchi hasharotlarning biologik xilma-xilligini o‘rganish maqsadida olib borilgan izlanishlar natijasida 11 ta kapalak turkumiga mansub 34 turdagи kapalaklar aniqlandi. Ulardan 10 ga yaqin hasharot turlari eng xavfli va zararli hisoblanadi.

**Аннотация:** В исследований результате проведенных по изучению биологического разнообразия Чешукрылых насекомых на пастбищах южных и центральных регионах Узбекистана выявлено 34 видов бабочек, относящиеся к 11 семействам Чешукрылых. Из них к самым опасным и вредоносным относятся около 10 видов насекомых.

**Annotation:** As a result of research conducted to study the biological diversity of Lepidoptera insects in the pastures of the southern and central regions of Uzbekistan, 34 species of butterflies belonging to 11 families of Lepidoptera were identified. Of these, about 10 species of insects are among the most dangerous and harmful.

**Kalit so‘zlar:** yaylovlar, o’simliklar, hasharotlar, lepidopteralar, oila, turlar, kesik qurtlar, zararkunandalar, morfologik belgilar.

**Ключевые слова:** пастбища, растений, насекомый, чешукрылых, семейства, вид, совки, вредител, морфологический пизнаки.

**Key words:** pastures, plants, insect, lepidoptera, family, species, cutworms, pest, morphological signs.

**Kirish:** O‘zbekistonda foydalaniladigan yaylov maydonlari 23,6 mln. hektar bo‘lib, shundan qorako‘lchilik yaylovlarining umumiyligi maydoni 17,8 mln. hektarni tashkil etadi[8].

Yaylovlar maydonlarida asosan buta o‘simliklardan; Oq saksovul, Qora saksovul, Qandimlar, Cherkez, Cho‘g‘on, Yulg‘un, yarim buta o‘simliklaridan; Teresken, Izen, Qo‘yrovuq, Shuvoq, Tatir, Kamforosoma, ko‘p yillik o‘tchil o‘simliklardan; Mingbosh, Kovrak, Yantoq, Iloq, Selin, Qo‘ng‘irbosh, Sho‘rajriq, bir yillik o‘tchil o‘simliklardan; Arpag‘on, Yaltirbosh, Chitir, Baliqko‘z, No‘xatak va boshqa chorva mollari uchun to‘yimli ozuqabop o‘simliklar o‘sadi [4,5,8].

Ammo chorvachilikning asosiy ozuqa manbayi bo‘lgan yaylov o‘simliklari rivojlanishi davrida turli xil zararli hasharotlar sezilarli darajada katta zarar yetkazadi [3,6,7]. Shuning uchun yaylov o‘simliklari hasharotlarining tur tarkibini va mavjud zararli hasharotlarni bioekologiyasini o‘rganish orqali zararli hasharot turlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish tadqiqotlarimizning eng asosiy vazifasi hisoblanib 2013-2023-yillar mobaynida O‘zbekistonning janubiy va markaziy xududlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarcand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida yaylov o‘simliklarining fitofag hasharotlari Tangachaqanotlilar tur tarkibini o‘rgandik.

**Tadqiqot metodi:** Ilmiy tadqiqotlar biologiya fanlarining asosiy metodlari kuzatish, taqqoslash, eksperiment va boshqa zoologiya, umumiy entomologiya, hamda qishloq xo‘jalik entomologiyasida qo‘llaniladigan usullar yordamida bajarildi.

Yaylov hasharotlarini kuzatish, yig‘ish, saqlash va materiallarni qayta ishslash V.P.Paliy [1] uslubiy qo‘llanmasi, hasharotlarning tur tarkibini aniqlashda В.Н.Щеголев (1960 ), aniqlagichidan foydalanildi[2].

**Tadqiqot natijalari:** Tangachaqanotlilar yoki kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumining 100000 dan ortiq turi fanga ma’lum. MDX xududida 8000 ga yaqin turi, O‘zbekistonda 1500 dan ortiq turi aniqlangan [2,7].

Kapalaklar gul nektari bilan oziqlansa, qurtlari o‘simglik tuqimasini kemirib, har xil o‘simgliklarga jiddiy zarar yetkazadi.

Ko‘p yillik tadqiqotlarimiz va kuzatuvarimiz natijasida O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlari Surxondaryo, Qashqdaryo, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlari yaylovlarida kapalaklarning 11 oilasiga mansub 34 turi qayd etildi.

**Chipor kapalaklar - Zygaenidae** – oilasi, bu oilaga mansub **Turkman chipor kapalagi - Zygaena truchmena** Ev. qanotlarida ko‘k va sariq xollari bor tiniq qizil rangli chiroyli kapalak. Qanotlarini yozgandagi kengligi 18-24 mm. Qurtlari yantoq, jiyda, turang‘il, tamariks va boshqa o‘simgliklarning bargi bilan oziqlanadi. Daryolar, ariqlar bo‘yida, daraxt va butazorlarda uchraydi. Kuzatuvarimiz davrida Nurota tumaning Nurota qorako‘l naslchilik MChJ xududiga qarashli chala buta efemerli yaylovlardan yagona nusxa topildi.

**G‘iloflilar - Coleophoridae-** oilasi, bu oilaning bitta turi **Tojik g‘ilofli kapalagi - Coleophora tadzhikilla** Surxondaryo viloyatining Sayxon, Xotinrobot, Xonto‘g‘ay massivlarida tarqalganligi aniqlandi. Qurtlari 2015-2017 yillari kam sonda o‘rtacha  $1m^2$  maydonda 0,5-0,8 ta tarqalgan bo‘lsa, 2022- yili o‘rtacha  $1m^2$  maydonagi soni 2-3 donani tashkil etdi. Kapalagi qanot yozganda 12-14 mm, bir xil ochiq rangda. Qurtlari g‘ilof ichida qishlaydi. Barcha yaylov o‘simgliklarini zararlaydi.

**1-rasm. Tojik g‘ilofli kapalagi qurti. Surxondaryo viloyati Sayxon massivi 2017-yil.**



**Arvox kapalaklar - *Sphingidae*** – oilasidan **Tuyatovon arvoh kapalagi - *Celerio zygophylli Ochs.*** tanasi va qanotlari qo‘ng‘ir – och jigarrang. Orqa qanotlari och-pushti, hoshiyasi qora va oval shakildagi xollari oq bo‘ladi. Qanotlarini yozganda 60-62 mm. Tuyatovon o‘simgili barglariga tuxum qo‘yadi. Apreldan boshlab sentabr oyining oxirigacha kapalaklari uchib chiqishi davom etadi. Cho‘l va tog‘ oldi yaylovlarda asosiy ozig‘i bo‘lgan tuyatovon o‘sadigan joylarda tarqalgan.

**Tunlamlar - *Noctuidae*** – oilasi vakillaridan yaylov o‘simgiklarida oziqlanib, ba’zan sezilarli zarar yetkazuvchi 17 turi tadqiqotlarimiz mobaynida qayd etildi.

**Peters kemiruvchi tunlami - *Ochropleura petersi Chr.*** – qanotlari uzun, tungi yirik kapalak. Oldingi qanotlari qizil- jigarrang, cheti sarg‘ish- oq. Qanotlarini yozgandagi kengligi 55-60 mm. Qurtlari yaylov o‘simgiklarining pastki qismini kemirib oziqlanadi. Surxondaryo viloyatining Kattaqum massivi cho‘llardan yagona nusxa topildi.

**Sebarga tunlami - *Mamestra trifolii Rott.*** – uncha yirik bo‘lmagan, sarg‘ish – jigarrang kapalak. Oldingi qanotlarida qo‘ng‘ir tusli buyraksimon xoli bor. Qanotlarini yozgandagi kengligi 34-38 mm. Yaylovlarda dukkakdoshlar va sho‘radoshlarga mansub o‘t o‘simgiklarida tarqalgan. Ayniqsa tog‘ oldi xududlarida lalmi bedaga jiddiy zarar yetkazadi.

**Kapyushonli tunlam - *Cucullia boryphora F.-W.*** – o‘rtacha kattalikdagi kapalak. Oldingi qanotlari kumishsimon, ustidagi xollari ham kumishsimon tusda. Orqa qanotlari och kulrang. Qanotlarini yozgandagi kengligi 36-40 mm. Qurtlari shuvoq o‘simgili bilan oziqlanadi. May – iyulda kapalaklari uchib chiqishi kuzatiladi. Navoiy va Jizzax viloyatlari yaylovlar shuvoqzorlarida tez – tez uchratish mumkin.

**Saxro tunlami - *Aleucanitis flexuosa Men.*** – tanasi yo‘g‘on sarg‘ish-ko‘ng‘ir, jigarrang tuk bilan qoplangan. Oldingi qanotlari sarg‘ish-ko‘ng‘ir, uchki qismi jigarrang hoshiyali. To‘lqinsimon ko‘ndalang chiziqlari bor. Qanotlari o‘rtasida qoramitir xollari bor. Qonotlarini yozganda kengligi 35 - 38 mm ga teng. Sahrodagi yantoq va boshqa o‘simgiklarga tuxum ko‘yadi. Lichinkalari ana shu o‘simgiklar bilan oziqlanadi. Cho‘l yaylovlarida asosiy ozig‘i bo‘lgan yantoqzorlarda tarqalgan.

**Pechakgul tunlam - *Erastria trabealis Scop.*** – mayda kapalak. Oldingi qanotlari sarg‘ish, juda ko‘p qora nuqtalari bor. Orqa qanotlari qo‘ng‘ir tusda. Qanotlarini yozganda 22-28 mm. Pechakgulda rivojlanadi va oziqlanadi. Aprel, iyul va oktabrda kapalaklari uchib chiqishi kuzatiladi. Tog‘ oldi yaylov xududlarida tarqalgan. Birinchi marta Jizzax viloyatining Forish yaylovlaridan topildi.

**Shuvoq tunlam - *Heliothis scutosa Schiff.*** – kapalagining qanotlari yozilganda 3-3,8 sm. keladi; oldingi qanotlari sarg‘ish yoki to‘q kul rang tusda, qanot pardasidagi tomirlar och rangli; qanotlari ustida dumaloq va buyraksimon nuqtalaridan iborat qoramitir naqsh bor. Keyingi qanotlari oldingilariga nisbatan birmuncha ochroq rangli, ularning keyingi chetida oq nuqtalar bilan ayrim qislarga ajralib turadigan qoramitir hoshiya bor. Keyingi qanotlarining o‘rta qismida bittadan qoramitir dog‘lar bor.

Qurtining uzunligi 5 sm.gacha yetadi; tanasi och va qora rangli nuqtalar bilan qoplangan bo‘z-yashil tusda; orqasi bo‘ylab och qora dog‘li kambar yo‘lchalar o‘tadi; yo‘lchalarning chetlari sariq chiziqlar bilan qurshab olingan; tanasi bo‘yidagi och rangli yo‘lchalardan pastroqda bittadan kambar qoramitir chiziq o‘tadi.

2-rasm. Shuvoq tunlamining qurti. Navoiy viloyati Nurota tumani 2015-yil.



Ko‘krak qalqonchasi qora tusda; bu qalqoncha uchta och rangli uzunasiga ketgan oraliq bilan to‘rt qismga bo‘lingan. Qurtning tanasi siyrak va kalta tukchalar bilan qoplangan, bu tukchalar ravshan ko‘rinib turadigan bo‘rtmalarga bitta-bittadan joylashgan; kallasi va orqa teshik qalqonchasidagi tukchalar qora nuqtalarga joylashgan.

G‘umbagi jigar rang tusda bo‘lib, uzunligi 18 mmgacha yetadi, tanasining keyingi uchida to‘rtta uzun tikanli bo‘rtmalarini bor, bu tikanlarning ikkitasi qolgan ikkitasidan yo‘g‘onroq.

Kuzatuvlarimiz mobaynida Navoiy va Jizzax viloyatlari shuvoqzor yaylovlarida ko‘p sonda uchradi.

Tadqiqotlarimiz davomida O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlari yaylovlarida kuzatuvlar olib borib Tangaqanotlilar turkumining Ayiqqurtlar - Arctiidae oilasidan *Phragmatobia fuliginosa* L. – Qo‘ng‘ir ayiqqurt kapalak, *Arctia caja* L. – Qayya ayiqqurt kapalagi, Pieridae - Oq kapalaklar oilasidan *Pieres rapae* L. – Sholg‘om kapalagi, *Colias erate* Esp. – Cho‘l sariq kapalagi, *Zegris fausti* Chr. - Faust tong kapalagi, Lycaenidae- Ko‘k kapalaklar oilasidan *Lycaena icarus* Rtt. - Ikar ko‘k kapalagi, Lasiocampidae – Pillakashlar oilasidan *Chilena sordida* Ersch. - Yantoq pillakash, *Malacosoma castrensis* L. - Odimlovchi pillakash, Psychidae-Xaltalilar oilasidan *Oiketicus* sp. – cho‘l xaltachisi, Nymphalidae – Nimfasimonlar oilasidan *Pyrameis cardui* L. – Chakamig‘ yoki qushqo‘nmas o‘t kapalagi turlarini Surxondaryo viloyatining Boysun va Bobotog‘ etaklaridagi, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G‘uzor, Nishon, Yakkabog‘, Chiroqchi tumanlarining tog‘ yon bag‘ri, Samarqand viloyatining Qo‘srobod, Nurobod, Jizzax viloyatining Forish, Navoiy viloyatining Nurota tog‘ etaklaridagi efemer-efemeroидli yaylov maydonlarida tarqaganligi va yaylov o‘simliklari bilan oziqlanib, yaylov o‘simliklariga sezilarli zarar yetkazishi aniqlandi.

**Xulosa:** O‘zbekistonning janubiy (Surxondaryo, Qashqadaryo) va markaziy hududlari (Samarqand, Navoiy, Jizzax) yaylovlarida Tangachaqanotlilar turkumining 11 oilasiga mansub 34 turi hisobga olinib, bulardan yaylov maydonlarida Chakamig‘ yoki qushqo‘nmas o‘t kapalagi- (*Pyrameis cardui* L.), Kapyushonli tunlam – (*Cucullia boryphora* F.-W.), Shuvoq tunlam – (*Heliothis scutosa* Schiff.) vaqt vaqt bilan ommaviy ko‘payuvchi turlar ekanligi qayd etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Палий В.Ф. “Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых” Фрунзе .1966 г. 238 с.
2. Определител насекомых по повреждениям культурных растений. 4-е перераб. и допол. изд. под ред. Проф.д.с/х.н. В.Н.Щеголева. Гос.изд. с/х. лите. Л.-М. 1960. 607 стр.
3. Xaytmuratov A.F. Yaylov o'simliklari zararli entomofaunasi.Agroilim jurnali. 2018 y. №2(52) son, 54-55 betlar.
4. Xaytmuratov A.F.O'zbekistonning janubiy xududlari yaylov hasharotlarining tur tarkibi. J. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. 2018y.№1(5) son, 28-30 betlar.
5. Хайтмуратов А.Ф. Вредная энтомофауна пастбищ Узбекистана и меры борьбы с ней. // Ж. Бюллетен науки и практики. 2019 г. Т. 5, №1. С. 217-223.
6. Хайтмуратов А. Ф. Вредные насекомые на пастбищах южного и центрального региона Узбекистана и меры борьбы с ними.// Ж. Актуальные вопросы современной науки. Раздел «Естественные и технические науки (Селское хозяйство)». -2019,-№ 4(24). С.
7. Xaytmuratov A.F. O'zbekistonning janubiy va markaziy hududlari yaylov o'simliklarining zararli entomofaunasi hamda ularga qarshi kurash choralari. Monografiya. Toshkent “Navro'z” 2020-yil.-246
8. Юсупов С., Муқумов Т. “ Пастбища Узбекистана и их рациональное использование”- Т.; “Мухаррир”- 2009 ,126 стр.